


2019 yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 19461,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 100,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,1 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 98,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 114,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 98,0 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2205,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16031,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,4 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,4 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 6,6 %, o'rta-quyi texnologiyali - 84,5 % va quyi texnologiyali 8,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,1 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,7 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,5 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Portlandsement, ming tonna

1819,0



1699,0

93,4

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

18065,0



25830,9

143,0

Ammoniy nitrat, ming tonna

111,64



125,22

112,2

Temir beton, tonna

27917,8



24247,1

86,9

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1188,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

28263,0



23577,0

83,4

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm


6475,161



9678,195

149,5

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Karmana (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,7 %), Nurota (106,7 %), Uchquduq (104,0 %), Tomdi (103,0 %), Qiziltepa (102,1 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (103,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1428,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,3 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %




Shu bilan birga, Karmana (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,6 %), Tomdi (106,3 %), Nurota (106,0 %), Navbahor (104,7 %), Konimex (103,1 %) va Uchquduq tumanlarida (102,8 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 628,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil yanvar-iyun




Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

2019 yil yanvar-iyun




Viloyatning boshqa korxonalari

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm



	<i>Sanoat mahsulotlari, ming. so'm</i>		<i>Xalq istemol mollari, ming. so'm</i>	
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>
Viloyat bo'yicha	11306,8	19797,8	1445,8	1453,5
<i>shahar</i>				
Navoiy	64629,5	118196,7	3031,7	2855,2
Zarafshon	1131,7	1284,7	982,1	993,8
<i>tumanlar</i>				
Karmana	8533,5	15258,1	1789,1	1948,8
Konimex	2975,7	3897,4	916,0	938,0
Qiziltepa	2161,1	2869,5	1203,2	1202,8
Navbahor	1719,4	1707,1	996,7	1023,1
Nurota	1041,5	1387,2	1083,3	1129,6
Tomdi	1035,9	1353,2	1241,3	1312,0
Uchquduq	1042,6	1322,0	1140,7	1167,2
Xatirchi	1324,5	1492,9	1082,8	1089,8

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (118196,7 ming so'm), Karmana (15258,1 ming so'm), Konimex (3897,4 ming so'm) va Qiziltepa (2869,5 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 2855,2 ming so'mni, Karmana tumani - 1948,8 ming so'mni, Tomdi tumani - 1312,0 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 1202,8 ming so'mni, Uchquduq tumani - 1167,2 ming so'mni va Nurota tumani – 1129,6 ming so'mni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2395,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznes ulushi



Kichik biznes ishlab chiqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd.so'm



2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (98,7 %), Qiziltepa (89,5 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (85,6 %), kuzatildi.


Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,9 %), Konimex (25,8 %), Karmana (46,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2381 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 656 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 27,6%) Navoiy shahriga, 379 tasi (15,9%) Karmana tumaniga, 299 tasi (12,6 %) Nurota tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019 yil 1 iyul holatiga)



2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 686 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 20,0 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil yanvar-iyun)



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (436) 223-33-29